

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

*professori, kimyo fanlari doktori  
SULTONOV MARAT MIRZAYEVICH  
tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan  
konferensiya materiallari*



**TAHRIR HAY’ATI**

**Bosh muharrir**

Yaxshiyeva Z.Z.

k.f.d., professor

**Mas’ul kotib**

Urazov Sharofiddin

**Muassasa**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jurnal 4 marta chiqariladi

(har chorakda)

Jurnalda chop etilgan ma'lumotlar  
aniqligi va to‘g‘riligi uchun mualliflar  
mas’ul.

Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manbaa  
aniq ko‘rsatilishi shart.

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti  
Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

**TAHRIRIYAT A’ZOLARI**

**Bosh muharrir**

Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna

k.f.d., professor

**Tahririyat a’zolari:**

1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU.
2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti.
3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA.
4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya.
5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA.
6. Kodirov T. – k.f.d., professor TTKI.
7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU.
8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU.
9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O‘zMU.
10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU.
11. Usmanova X.U. – professor URUXU.
12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O‘zMU.
13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O‘zMU.
14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU.
15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU
16. Murodov K.M. – dotsent SamDU.
17. Abduraxmonov G. – dotsent O‘zMU.
18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O‘zMU.
19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU.
20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU.
21. G‘o‘dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU.
22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU.
23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O‘zMU.
24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF
24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU.
25. Rashidova K. – dotsent JDPU.
26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.

## **ILM SARHADLARI**

**Sultonov Marat Mirzayevich**, 1964 yil 17 fevralda Andijon viloyati, Asaka shaxrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Ma’lumoti oliy, 1986 yil Toshkent davlat universitetini kimyo o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.

**Sultonov Marat Mirzayevich**- 1986-1988 yy. -Jizzax viloyati, Jizzax tumani 8-maktab o‘qituvchisi, 1988-1989 yy. -Toshkent tibbiyat instituti umumiyl kimyo kafedrasini kichik ilmiy xodimi, 1989-1992 yy.- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi polimerlar kimyosi va fizikasi instituti aspiranti, 1992-1994 yy. -O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi polimerlar kimyosi va fizikasi instituti kichik ilmiy xodimi, 1994-1995 yy.- Jizzax davlat pedagogika instituti umumiyl biologiya kafedrasini o‘qituvchisi, 1995-1996 yy. -Jizzax viloyati hokimligi fan va texnologiya ilmiy markazi ilmiy kotibi, 1996-1997 yy. - Jizzax davlat pedagogika instituti umumiyl biologiya kafedrasini o‘qituvchisi, 1997-1998 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti umumiyl biologiya kafedrasini katta o‘qituvchisi, 1998-2012 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, 2012-2018 yy. -Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, 2018 yil iyuldan hozirgi vaqtga qadar Jizzax davlat pedagogika universitetining kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasini mudiri lavozimidan ishlab kelmoqda.

**Sultonov Marat Mirzayevich** universitetdagi pedagogik faoliyati mobaynida analitik kimyo va organik kimyo fanlarining o‘qitilishi, ta’lim jarayonini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, ta’limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish borasida chuqur izlanib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Shu bilan birga institutning o‘quv, ilmiy-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarini takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

**Sultonov Marat Mirzayevich** 1993 yil 30 aprelda professor B.L.Gofurov va professor S. Masharipovlar rahbarligida “Vinilxloridni to‘yinmagan benzoksazolon hosilalari bilan sopolimerini sintez qilish va xossalarni o‘rganish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini, 2019 yil 5 martda professor E.Abduraxmonov ilmiy maslahatchiligidagi “Chiqindi va tutunli gazlar tarkibi monitoringi uchun avtomatlashgan termokatalitik usullarni ishlab chiqish” mavzusidagi doktorlik



***“Journal of Natural Science” №1(14) 2024 y. Sultonov Marat Mirzayevich  
tavalludining 60 yilligiga bag’ishlangan konferensiya materiallari***

---

dissertatsiyasini muvaffaqiyatlilik himoya qilgan. Xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda OAK e’tirofidagi ilmiy jurnallarda 100 dan ziyod ilmiy maqolalari e’lon qilingan.

**Sultonov Marat Mirzayevich** rahbarligida kimyo o‘qitish metodikasi bakalavr ta’lim yo‘nalishining 100 dan ortiq talabalari bitiruv malakaviy ishlarini muvaffaqiyatlilik himoya qilgan. Bugungi kunda qadar 11 nafar magistrlik ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilgan.

**Sultonov Marat Mirzayevich** “Термокатализитические методы определения состава выхлопных и дымовых газов” nomli monografiya, “Аналитическая химия”, “Fizik-kolloid kimyo” “Kimyo tarixi” nomli o’quv qo’llanmalar muallifi hisoblanadi.

**Sultonov Marat Mirzayevich** O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K.01.03 raqamli Ilmiy Kengash va Samarqand davlat universiteti huzuridagi kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi 03/30.12.2019.K.02.05 raqamli ilmiy Kengash va O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya nanotexnologiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengashlar a’zosi, sifatida ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

**Sultonov Marat Mirzayevich** yuqori tashkilotlar tomonidan yuklatilgan vazifalar, universitet va fakultet tomonidan berilgan topshiriqlarni sidqidildan bajarganligi sababli “Xalq maorifi a’lochisi” ko‘krak nishoni, vazirlik va universitet rektorining faxriy yorliq va sovg‘alari bilan taqdirlangan.

**Sultonov Marat Mirzayevich** universitet jamoasi o‘rtasida alohida e’tiborga ega pedagog, talabalarga bilim berish borasida talabchan va mehribon ustoz-murabbiylardan biridir. U doimiy ravishda o‘z malakasini, siyosiy va ilmiy-nazariy saviyasini oshirish ustida sabr-toqat bilan ishlaydi.

**O’QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA KROSSVORDLARNING  
O’RNI**

*Turg’unov Jasur-talaba*

*Muradova Dilafruz-dotsent*

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kimyo faninino’qitishda, talabalar bilimini baxolashda krossvordlarning o’rni, krossvord yaratish imkoniyati to’g’risida ma’liumotlar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** bilim, baholash, krossvord, kimyo, rebus, ta’lim texnologiyasi

Kimyo maktab o’quvchilar uchun murakkab fanlardan biridir, shuning uchun ko’pgina o’quvchilar o’quv yilining birinchi yilidayoq kimyo faniga bo’lgan qiziqishlarini yo’qotadilar. Lekin, har qanday o’qituvchi o’zining faniga o’quvchilarini qiziqtirishni xoxlashadi. Kimyo fani o’qituvchilar o’zining fanidan o’quvchilar faqat kimyoviy formulalarni yozishni bilishlarini emas, balki atrof-muhitdagi kimyoviy jarayonlarning asl moxiyatini tushunishini, u yerda sodir bo’layotgan kimyoviy jarayonlarni tasavvur qila olishlarini, har bir kimyo darsi ular uchun yangi kashfiyot bo’lishini, kimyo darslarini o’quvchilar bayramday qabul qilishlarini xoxlashdi[1]. Shuning uchun kimyo darslarida turli krossvordlar, rebuslar, o’yinlar, virtual laboratoriyalardan foydalanish o’quvchilarning kimyo faniga qiziqishinin sezilarli darajada ortishiga olib keladi. Bunda esa bizga turli interaktiv onlayn saytlar yordamga keladi. Shunday saytlardan biri biouroki.ru sayti hisoblanadi. Bu sayt fan o’qituvchilar uchun beminnat yordamchi saytlardan biri hisoblanib, sayt yordamida krossvordlar, testlar, rebuslar, kitoblar tayyorlash mimkin. Quyida sizga ushbu sayt yordamida krossvord tayyorlash haqida to’xtalib o’tamiz.

Bu sayt asosan biologiya fani o’qituvchilar uchun moslashgan bo’lib, lekin kimyo fani o’qituvchilar ham foydalansa bo’ladi. Buning uchun saytga kiriladi va krossvord bo’limi tanlanadi.



Кроссворды по биологии

**Биология**

Сонин Н. И.  
[6 класс](#)  
[7 класс](#)  
[8 класс](#)  
[9 класс](#)  
[10-11 классы](#)

Другие авторы  
[7 класс. Латюшин В. В.](#)  
[8 класс. Беляев И. Н.](#)  
[9 класс. Пасечник В. В.](#)  
[10 класс. Пономарёва И. Н.](#)  
[10-11 классы. Пасечник В. В.](#)

Из дополнительной литературы  
[Ботаника](#)  
[Представители животного мира](#)  
[Анатомия. Физиология. Гигиена](#)  
[Общая биология](#)  
[Кроссворды учащихся 7-8 классов](#)  
[Очаровательные кроссвордники](#)

**Экология**

**Природоведение**

**Окружающий мир**

**1-rasm. biouroki.ru saytining ishchi oynasi**

So’ngra “создать кроссворд” bo’limi tanlanadi.

The screenshot shows a search results page for "10-11 классы" (10-11 grades). It includes links for "Экология" (Ecology), "Природоведение" (Nature study), and "Окружающий мир" (Environment). Below these are links for "Зверев А. Т.", "Пакурова В. М.", and "Сонин Н. И.". A red arrow points to the "Создать кроссворд" (Create crossword) button at the bottom of the page.

### **2-rasm. biouroki.ru saytida krossvord yaratish bandi**

Ekranda namoyon bo’lgan navbatdagioynaga krossvordning javob so’zlarini kiritamiz va “создать” tugmasini bosamiz .

The screenshot shows a "Create crossword" form. A text input field contains the words: "alyuminiiy, fosfor, kislorod, magniy, xlor, kalsiy, azot, litiy, berilliyy, oltingugurt". A red arrow points to the "Создать" (Create) button at the bottom right.


### **3-rasm. biouroki.ru saytida krossvord yaratish bandi**

Ekranda turli xil krossvord na’munalarini paydo bo’ladi. Siz ulardan o’zingizga yoqqanini yuklab olishingiz va o’quvchilar bilimini baholashda foydalanishingiz mumkin.

The screenshot shows two crossword grids. The left grid is labeled "Таблица" (Table) and the right grid is labeled "Картинка" (Picture). A red arrow points to the "Картинка" tab. Both grids show various words like "azot", "kalsiy", "fosfor", etc., with some letters filled in.

### **4-rasm. biouroki.ru saytida yaratilgan krossvord na’munalar**

Kimyoviy elementlar elektron konfiguratsiyasi bo'yicha tayyorlangan krossvorddan na'muna:



**5-rasm. biouroki.ru saytida yaratilgan krossvorddan olingan nusxa**

Kimyo darslarida turli innovatsion texnologiyalar, o'yin texnologiyalardan foydalanssa, ularning darsga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi, fikrlash doirasi kengayadi, ko`proq mustaqil bilim olishga intiladi va hamkorlikda ishlashni o`rganadi. Bu tarzda darslarni tashkil qilish nafaqat o`quvchilarning bilim samaradorligii oshiradi, balki o`qituvchining ham o`z ustida ishlashga, yuqori natijalarga erishishiga va vaqtini to`g`ri taqsimlay olishiga ham yordam beradi.

*Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

1. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiyl o'rta ta'lif maktabida o'qitish metodlari.” - Toshkent: O'qituvchi-2005
2. Habiba A. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR NING KIMYO TA'LIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 349-352.
3. D.Muradova, M.Kamolova “Umumta'lif maktablarida kimyoviy kinetika mavzularini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qo‘qon 10.05.2022